



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
O‘RMON XO‘JALIGI AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

**O‘rmon xo‘jaligi agentligi rasmiy veb-saytida ma‘lumot joylashtirish va
yangilash uchun mas‘ul xodim belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 373-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda O‘rmon xo‘jaligi agentligining rasmiy veb-saytida ma‘lumotlarni joylashtirish va yangilash uchun mas‘ul xodim belgilash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Tursunov Musurmon Sulton o‘g‘li – AKTni joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi O‘rmon xo‘jaligi agentligining rasmiy veb saytida ma‘lumotlarni joylashtirish va yangilash uchun mas‘ul xodim etib belgilansin.

2. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish rais o‘rinbosari G‘.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



**NUSXASI ASLIGA
TO‘G‘RI**

N.Bakirov

2023-yil “ 5 ” - sentabr
153 - son